



## TURKIY TOPONIMLARNI RIVOJLANISH TARIXIDAN

Quchqorova Shahodat

Norova Raxima

O'ZDJTU, o'qituvchisi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8055729>

### ARTICLE INFO

Received: 11<sup>th</sup> June 2023

Accepted: 18<sup>th</sup> June 2023

Online: 19<sup>th</sup> June 2023

### KEY WORDS

Toponimika, o'lkashunoslik, turkiy so'zlar, ma'no, geografik terminshunoslik, etimologiya, hudud.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada ko'pgina toponimlar zaminida oddiy atamalar, turdosh so'zlar yoishi va shu bilan birga bir qancha joy nomlari ayrim shevalargagina xos so'zlardan tarkib topganligi haqida fikr yuritiladi.*

Geografik nomlarning ma'nosini, ularning kelib chiqishini, o'zgarishini bilishga qiziqish juda qadim zamonlardan boshlangan. Toponimikaga oid ma'lumotlar qadimgi dunyo olimlari asarlarida ko'plab uchraydi. Chunonchi, Gerodotning "Tarix", Strabonning "Geografiya", Pomiponiy Melaning "Xorografiya", Pliniyning "Tabiiy tarix" nomli asarlarida ko'pgina toponimik ma'lumotlarni uchratish mumkin. Sharqda, jumladan, O'rta Osiyoda ham toponimikaga qiziqish qadimdan boshlangan. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Abu Rayhon Beruniyning "Qonuni Ma'sudiy", "Hindiston", "Saydana", Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk", Ibn Sinoning "Dengiz qirg'oqlari" asarlarida toponimikaga oid juda ko'p ma'lumotlarni topish mumkin. Toponimik ma'lumotlar muallifi noaniq "Hudud al - olam" nomli geografik asarda ham mavjud. Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari mumtoz o'lkashunoslik asari bo'lishi bilan birga unda toponimikaga oid juda ko'p ma'lumotlar bor.

X – XI- asrlarda yashagan Abu Rayhon Beruniy o'z davrining buyuk olimi - astronom, matematik va geograf bo'lgan. U 973 yili 4 sentabrda Xorazmdagi Kot (hozirgi Beruniy) shahrining chekkasida tug'ilgan va 1048 yilda 75 yoshda G'aznada vafot etgan. Uning ilmiy merosi orasida toponimikaga oid ma'lumotlar ko'p uchraydi. Uning geografik va toponimik merosi "At - Tafhim", "Qonuni Ma'sudiy", "Geodeziya", "Hindiston", "Minerologiya", "Osori boqiya", "Saydana" kitoblarida keltirilgan.

Abu Rayhon Beruniyning "Hindiston" asarida toponimika qonuniyatlariga oid bir qancha fikrlari mavjud. Chunonchi, yunonlar va arablar turkiy so'zlarni buzib, o'z talaffuzlariga moslab ishlatganliklari oqibatida ayrim so'zlarning ma'nosi o'zgarib ketganini aytadi. Masalan, turkiycha tosh so'zini arablar shosh deb talaffuz qilishidan ma'no o'zgarganini aytadi. "Saydana" kitobida 400 dan ortiq qishloq, tog', daryo, shahar va orollarning nomlari tilga olingan. "Qonuni Ma'sudiy" kitobida 603 ta joy nomi ko'rsatilgan. Abu Rayhon Beruniy



Mo'lton shahri nomiga quyidagicha izoh bergan (H.H.Hasanov, 1985): "Mo'ltonning (asl) nomi Koshiyapura edi. Keyin Hansapura, keyin Bashapura, keyin Sanbhapura va keyin Mo'lastxona, ya'ni "Asl joy" deb nomlanadi; mo'l - "asl", tona - "joy" demakdir" deydi. "Mineralogiya" kitobida konlarning geografik tarqalishi, qaysi toshning qaysi tog', qaysi daryo vodiysi va qaysi qishloqdan qazib olinishi haqida yozishi bilan birga ayrim tosh, minerallarga izoh ham bergan. Beruniyning dunyo xaritasida qirqqa yaqin joy nomlari berilgan.

Muallifi noma'lum "Hudud al - olam" (X asr) kitobida ham geografik toponimika va terminshunoslikka oid ma'lumotlar ko'p. Bu kitobda Buxoro, Farob, Poykent, So'g'd, Tavovis, Karmina, Dabusi, Arbinjon, Kushoniya, Samarqand, Kesh, Termiz, Zomin, Jizzax, Farg'ona, Axsikat, Qubo, Shosh, Kot va boshqa joylar haqida ma'lumotlar bor. Zahiriddin Muhammad Boburning (1483 - 1530) "Boburnoma" kitobi mumtoz o'lkashunoslik kitobi bo'lishi bilan birga, unda toponimikaga va terminshunoslikka oid ma'lumotlar juda ko'p. Xususan Farg'ona vodiysidagi geografik nomlar ma'nosi, etimologiyasiga alohida ahamiyat berilgan. Andijon, Kandibodom, Isfara, Xo'jand, Axxi, Ho darvesh, Sayhun, Marg'ilon haqida batafsil ma'lumotlar mavjud.

Bulardan tashqari, Abu Hayyon (XIII - XIV asrlar), Jaloliddin Turkiy (XIV - XV asrlar), Mirzo Ulug'bek (XIV - XV asrlar), Abulg'ozixon (XVI asr), Qori Rahmatulla Buxoriy (Vozix) (XIX asr) asarlarida toponimikaga va geografik terminshunoslikka oid ma'lumotlar keltirilgan. Bu jihatdan Abulg'ozixonning "Shajarai turk", Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi", Qori Rahmatulla Buxoriyning "Xotiralar", "Sayram risolasi" nomli asarlari ayniqsa diqqatga sazovordir.

Bulardan tashqari, Abu Hayyon (XIII - XIV asrlar), Jaloliddin Turkiy (XIV - XV asrlar), Mirzo Ulug'bek (XIV - XV asrlar), Abulg'ozixon (XVI asr), Qori Rahmatulla Buxoriy (Vozix) (XIX asr) asarlarida toponimikaga va geografik terminshunoslikka oid ma'lumotlar keltirilgan. Bu jihatdan Abulg'ozixonning "Shajarai turk", Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi", Qori Rahmatulla Buxoriyning "Xotiralar", "Sayram risolasi" nomli asarlari ayniqsa diqqatga sazovordir.

Arablar zamonidan qolgan toponimlarning eng ko'p sonlisi Rabot so'zi bilan bog'liq. Arablar o'zlari bosib olgan joylarda harbiy punktlar - ko'pdan-ko'p rabotlar (ribotlar) qurgan. Chunonchi Buxoro yaqinidagi **Boykand** (Paykand) yaqinida 1000 dan ortiq rabot bo'lgan. Bu rabotlarda turkiy xalqlarning hujumlariga qarshilik ko'rsatadigan qo'shinlar turgan.

Rabot nomli toponimlar O'zbekiston hududida hozir ham kam emas. Masalan, chor Rossiyasining harbiy olimi N.F.Sitnyakovskiyning 1899 yilgi «Ro'yxat»ida Zarafshon vodiysining faqat Buxoro qismida Balandrabot, Beshrabot, Yettirabot, Jarrabot, Deganrabot, Kaltarabot, Kattarabot, Oltirabot, Oqrabot, Toshirabot, Changrabot, Chorrabot, Chuqurrabot, Qo'tirrabot, Qo'shrabot, Rabot, Rabotio'zbek, Rabotimulla, Raboti Yusuf, Navrabot, Yangirabot kabi 160 dan ortiq qishloq, bundan tashqari, shu qishloqlar nomi bilan atalgan bir necha o'n ariq qayd qilingan.

Shuningdek, *bob* (bobil), *nahr*, *tal* (tepa), *masjid* (machit), *madrasa* kabi arab tilli atamaları geografik nomlar tarkibida ko'p uchraydi. Shuni aytish kerakki, aslida arabcha bo'lsa ham turkiy xalqlar tillarining lug'at tarkibidan o'rin olgan bu kabi so'zlardan tarkib topgan toponimlarni turkiy nomlar deyish to'g'ri bo'ladi.



O'zbekiston toponimlari tarkibida eng ko'p keladigan affikslar (topoformantlar): -zor (Marg'zor, Olmazor), -kat, -kent (Navkat, Binkat, Parkent), -iston (Guliston, Bog'iston), -loq (Toshloq, Sangloq, qum-loq), -obod (Dehqonobod, Dashnobod, Xalqobod, Xonobod), -li, -lik, -liq, (Gazli, Tolli, Soylik, Ohaklik, Bo 'stonliq, qo yliq), -on (Ohangoron, Childuxtaron, So'zangaron), -xona (Arabxona, Bo'rixona, Urganjixona), -goh, go (Namozgoh, Janggoh), -chi (Sho'rchi, o'qchi, Chiroqchi), -cha (Sho'rcha, Ko'kcha, Shoxcha), -ak, -ik (Hisorak, Jizzax, Bog'dodiy, Xumdonak), -kor (Paxtakor, Lalmikor) va boshqalar.

Shuni alohida qayd qilib o'tish kerakki, -chi kabi affikslar etnonimlar tarkibi-da ham uchraydi. Masalan, bolg'ali, jag'albayli, oytamg'ali, qo'shtamg'ali, uchtamg'ali, to'rttamg'ali, qanjig'ali, qaychili, qarg'ali, sirg'ali, so'loqli, taroqli, tuyoqli, ba'zan, qutchi kabi etnonimlar ana shular jumlasidan. Bundan shunday xulosa chiqadiki, O'zbekiston toponimlarini af-fikslariga qarab tasnif qilganda atamalar toponimga aylanmasdan ol-din ularning tarkibida affiks bor-yo'qligini uzil-kesil aniqlab olish shart.

### References:

1. 2008. 2. Do'simov Z. Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati. T.; 1977, b.4.
2. Nafasov T. Janubiy O'zbekiston toponimiyasining etnolingvistik analizi. T.; 1985.
3. Qorayev S. Geografik nomlar ma'nosini bilasizmi? -T.; 1970.
4. Qorayev S. Geografik nomlar ma'nosi. -T.; 1978.
5. Qorayev S. Geografik terminlar va tushunchalar izohi lug'ati. -T.; 1979
6. Gulomov P. Jo'g'rofiya atamalari va tushunchalari izohli lug'ati.-T.; 1994.